

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA MA’NAVIY ASOSLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
taktika sikli katta o‘qituvchisi,
Podpolkovnik*

Nurmatov Botirjon Xusanovich

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar
tayyorlash markazi taktika sikli o‘qituvchisi
podpolkovnik*

Nutfiyev Ikrom Izzatullayevich

«Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur».

Shavkat MIRZIYOEV

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni/**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishning ta‘limiy asoslari yanada takomillashtirilishi zarur, bunday yuksak murakkab masalani, eng avvalo, ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘zaro aloqasi, ularda vatanparvarlik, izchillik tamoyili talqini va ushbu fanlarni ana shu yo‘nalishda o‘qitish orqali erishiladi.*

Аннотация: *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются приоритеты повышения социальной активности молодежи в гражданском обществе. Необходимо дальнейшее совершенствование образовательных основ воспитания чувства патриотизма в сознании молодежи. Такая сложнейшая задача может быть решена, прежде всего, путем взаимодействия социальных и гуманитарных наук, интерпретации принципа патриотизм и последовательность в них, и преподавание этих наук в этом направлении.*

Abstract: *This article analyzes the priorities for increasing the social activity of young people in civil society from a socio-philosophical point of view. It is necessary to further improve the educational foundations for cultivating a sense of patriotism in the minds of young people. Such a complex task can be solved, first of all, through the interaction of the social and human sciences, the interpretation of the principle of patriotism and consistency in them, and the teaching of these sciences in this direction.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, harbiy, jasorat, Vatanni sevish, harbiy vatanparvarlik, ma’naviyat, axloq, tarbiya, ma’naviy-axloqiy meros, fidoiylilik, burch, mas’uliyat, qahramonlik, matonat, sadoqat, g‘urur.*

Ключевые слова: *Родина, воинство, мужество, любовь к Родине, военный патриотизм, духовность, нравственность, воспитание, духовно-нравственное наследие, самоотверженность, долг, ответственность, героизм, сила духа, верность, гордость.*

Key words: *Motherland, military, courage, love for the Motherland, military patriotism, spirituality, morality, education, spiritual and moral heritage, dedication, duty, responsibility, heroism, fortitude, loyalty, pride.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o'tmishda yaratilgan ma'naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Binobarin, xalqimizning buyuk milliy ma'naviyati va axloqiy asoslari

va uning tarixini chuqur o'rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O'zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliy qahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida inson qalbi va ongiga rahna soluvchi tahdidlar ortayotganligi tashvishli holdir. Ayniqsa, tashqi ta'sirlar, tazyiqlar, tajovuzlar ortishi, axborot xurujlarining avj olishi dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirda dunyo miqyosida tahlkali vaziyatni ortib borayotgani bizdan doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lishni talab etmoqda. Tarixdan ma'lumki, aksariyat tanazzulgayuz tutgan davlatlarda jamiyatning parchalanishida g'oyaviy parokandaliklar asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu o'rinda, bugungi kun talabi barcha voqea hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan yetarli darajada xabardor bo'lishni taqozo etmoqda.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik, yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, Vatanni himoya qilish, uning xavfsizligi hamda yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishni talab etadi. Muhim jihati shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan "chetga chiqadi". Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini

Vatanni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi.

2023 yil 29 iyul sanasida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 267-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda 2023-2027-yillarda yoshlarni Harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish asosiy maqsad qilib olindi. . Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash «Vatan – ulug‘, burch–muqaddas!» konseptual g‘oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat‘iy fikr va e‘tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi. Mazkur g‘oyaning asosiy mazmun va mohiyati o‘sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, milliy ruh va g‘ururni yuksaltirish, bebaho boylik — tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarini shakllantirish, zarurat bo‘lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Harbiy vatanparvarlik - umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo‘lib, u O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb axloqiy masala bo‘lib qolaveradi. Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy,

iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog‘liq. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta‘lim muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas‘ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma‘naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ta‘kidlash zarurki, o‘zbek xalqining milliy-ma‘naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo‘lida fidoyilik namunalari ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg‘u “muhabbat”,

“ishonch”, “sadoqat” kabi ma’naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o‘z mavqeini yo‘qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir.

Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog‘liq ekanligiga e’tibor berish zarur. Bu borada, harbiy vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish bilan bog‘liq ma’rifiy ishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlar kursantlar va bo‘lajak yosh ofitserlarni haqiqiy vatanparvar qilib tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda yosh avlodning Vatan va uning kelajagi haqidagi o‘y-fikrlari, vatanparvarlik tuyg‘usini his qilishi, avvalo:

- shaxsiy manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan bog‘lashda;
- milliy g‘urur va milliy iftixor tuyg‘usining mustahkamligida;
- Vatan ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishida;
- yurt tinchligini asrash, himoya qilish uchun kurashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik faqat insonga xos xususiyat bo‘lib, ma’no-mazmuni jihatidan ma’naviy fazilatlar turkumiga kiradi.

Uning axloqiy asosini muhabbat – burch - fidoyilik o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘langan ijtimoiy-ma’naviy faoliyat tashkil etadi. Har qanday davlat o‘z istiqbolini sog‘lom va barkamol avlod timsolida ko‘radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro‘yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yoshlarni zamon talablari darajasida ta’lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, ona Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi.//2024.–12yanvar.

<https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/12/armed-forces/>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son.// <https://lex.uz/uz/docs/6518238#6519244>.

3. . Военный энциклопедический словарь.– Москва: Эксмо-Пресс,2007.- 1024 с.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – № 27. –2017.